



Ahlussunna val-jamoa» kutubxonasi
«Fiqh risolalari» silsilasi (1)

- Siz qaysi dinga mansubsiz?

- Islom diniga.

- Namoz o`qiysizmi?

- ...

- Unda, bu maktub siz uchun.

Bismillahir rohmanir rohiym

Barcha olamlar robbisi bo`lgan va: «**E`slating! Chunki, e`slatish mo`minlarga foyda beradi. Va men jin va insonlarni o`zimgagina ibodat qilishlari uchun yaratdim...**»- deb aytgan Alloh ta`ologa hamdu sanolar va «**Biz bilan u (mushrik va kofir) lar o`rtasidagi ahd namozdir. Uni tark qilgan kimsa kofirdir**» (**Imom Ahmad rivoyati, sahih hadis**) deb aytgan payg`ambarimizga salavot va salomlar bo`lsin.

So`ng ...

Hoy Allohnинг bandasi, bilingki, namoz Islom dininig ustuni bo`lib, u bilan musulmon kofirdan ajralib turadi. Afsuski, Islom diyorida tug`ilgan va: «Biz ham musulmonmiz»- deb aytayotgan xalqimizning ko`p qismi namozga e`tibor bermay, uni o`qimayaptilar. Shuning uchun ham ularga namoz, namozning dindagi o`rni va uni tark qilishning oqibatlari haqida tushuntirib, nasihat qilishni burchimiz deb bildik.



Avvalo shuni bilingki, namozni baxtiqaroligi g`olib bo`lgan, azob-uqubati ko`paygan, hasrat va nadomati bitmaydigan kimsagina tark qiladi. Bas, namozni tark qilgan odam manfur, rasululloh sollallohu alayhi va sallamning yo`lidan boshqa yo`lda o`ladigan va joyi jahannam bo`ladigan kimsadir.

Alloh ta`olo va rasululloh sollallohu alayhi va sallam namozning naqadar buyuk ibodat e`kanini bayon qildilar. Alloh ta`olo dedi: «**Ulardan so`ng namozlarini zoe qiladigan va shahvatlarga e`rgashadigan avlod keldi. Ular tez kunda g'oy (jahannam vodiylaridan biri) ga duch keladilar**»; [Maryam:59]

«Har bir jon o`zi qilgan narsaga garovga qo`yilgan. Faqatgina, o`ng tomon sohiblari bundan mustasnodir. Ular jannatda turib gunohkorlardan: «Sizlarni jahannamga nima narsa olib keldi?»- deb so`raydilar. (Gunohkorlar): «Biz namoz o`qimas e`dik»- deb javob beradilar»; [Muddassir:38-43]

«Agar tavba qilib, namozlarini to`kis ado e`tib, zakotlarni bersalar, ular sizning dindosh birodarlariningizdir». [Tavba:11]

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar: «**Kishi bilan kufr va shirk o`rtasida namozni tark qilish bordir**» (Imom Muslim rivoyati);

«Bandani qiyomat kunida avvalo namozdan hisob qilinadi. Agar namozi durust bo`lsa, boshqa amallari ham durust bo`ladi. Agar namozi buzuq bo`lsa, boshqa amallari ham buzuq bo`ladi» (Tabaroniy rivoyati, sahih hadis);

«Men odamlar bilan «Allohdan o`zga haqiqiy iloh yo'q va



Muhammad Allohning e`lchisidir»- deb guvohlik bermagunlaricha, namozni to`kis ado e`tib, zakotni bermagunlaricha urushishga buyurildim. Odamlar shunday qilsalar mendan qonlari va mollarini o`z haqqi bilan saqlab qoladilar. Ularning hisobi Allohgadir» (Muttafaqun alayh).

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «**Mening havzim Adanning Iylasidan ham uzoqdir. Jonim qo`lida bo`lgan zotga qasamki, u (havzim) ning idishlari osmon yulduzlarining sonidan ko`pdir. U sutdan oq va asaldan shirindir. Men uni odam begona tuyadan himoya qilganidek himoya qilaman»-** dedilar. Sahobalar:»Yo rasululloh, siz bizlarni taniysizmi?»- deb so`radilar. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «**Ha, sizlar tahorat ta`siridan nurli qashqa bo`lib kelasizlar. Bu (ko`rinish) boshqalar uchun bo`lmas»-** dedilar» (Imom Muslim rivoyati).

Hoy namozni tark qilgan odam, shunday dahshatli kunda rasululloh sollallohu alayhi va sallam namozni tark qilganingiz uchun sizni quvib tursalar holingiz nima bo`ladi?! Rasululloh sollallohu alayhi va sallam o`ziga e`rgashgan kishilarni tahoratlarining asarlaridan bilar e`kanlar, sizni qanday tanisin?! Axir namoz o`qimaganingiz uchun sizda tahorat asarlari yo`q-ku!

Yoki siz shuncha narsa e`slatilganidan keyin ham jannatga kirishni xayol qilayapsizmi?! Unutmangki, Shaytonni amr e`tgani zamon Odam alayhissolatu vassalomga sajda qilmagani uchun Alloh ta`olo la`nat qildi va o`z dargohidan quvdi. U qiyomat kunida jahannamga kiradi. Alloh ta`olo dedi: «**Biz farishtalarga: «Odamga sajda qilinglar!»-** dedik. **Ular sajda qildilar. Faqatgina, Iblis (Shayton) bosh tortdi, kibr qildi va kofirlardan bo`ldi».**



Alloh Shaytonni la`nat qildi. Chunki, u Odam alayhissolatu vassalomga sajda qilmadi. Maxluqqa sajda qilmagani uchun berilgan jazo shu bo`lsa, Allahga sajda qilmagan va uning amrlariga osiy bo`lgan kishiga beriladigan jazo qanday bo`lishi mumkin?! Holbuki, Allah ta`olo: «**Men jin va insonlarni o`zimgagina ibodat qilishlari uchun yaratdim**» va «**Iymonli bandalarimga ayting, namozlarini to`kis ado e`tsinlar!**»- demoqda.

Umar ibn Xattob -roziyallohu anhu- urilgan hanjar zarbasidan hushlaridan ketdilar. Hushlariga kelgani payt: «**Odamlar namoz o`qidilarmi?**»- deb so`radilar. Atrofidagi odamlar: «**Ha**»- deb javob berdilar. Umar ibn Xattob -raziyallohu anhu: «**Namozni tark qilgan odamning Islomdan nasibasi yo`qdir**» va Muhammad sollalohu alayhi va sallamning sahabalari: «**Namozdan boshqa tark qilinsa kufr bo`ladigan narsani bilmas e`dilar**»- dedilar.

Abdulloh ibn Mas`ud -raziyallohu anhu: «**Namozni tark qilgan kishining dini yo`qdir**»- dedilar.

Aby Dovud rahimahulloh: «**Namozi bo`limgan odamning iymoni yo`qdir**»- dedi.

Hofiz Munziriy rahimahulloh: «**Sahobalarning bir qismi namozni vaqtchi qiqquniga qadar qasddan tark qilgan odamni kofir deb bildilar**»- dedi. Ulardan Umar ibn Xattob, Abu Hurayra, Abdulloh ibn Mas`ud, Abdulloh ibn Abbos, Muoz ibn Jabal, Jobir ibn Abdulloh, Abud-Dardo`, Abdurrahmon ibn Avf va boshqalar (Allah ulardan rozi bo`lsin). Ibn Qoyyim rahimahulloh: «**Sahobalardan bu so`zning xilofi rivoyat qilinmagan**»- dedi.



Imom Ahmad rahimahulloh dedi: «**Namozga chaqirilsa: «namoz o`qimayman» deb bosh tortgan va vaqtি chiqquniga qadar o`qimagan odamni qatl qilinadi. Zamondoshlarimizdan ko`pi namozni tark qilgan kishining murtadligi, uning jazosi o`lim e`kani va u bilan musulmon rafiqasi o`rtasini ajratish kerak e`kaniga fatvo berdilar... Shunday e`kan, namozni tark qilgan odam qaysi amal va qaysi savobni umid qilmoqda?!**

Rasululloh sollalohu alayhi va sallam: «**Asr namozini tark qilgan kishining amallari zoe bo`ladi**»- dedilar (Imom Buxoriy rivoyati). **Shunday e`kan namozlarni zoe qilgan kishilarning Yer va Samolar hojasи huzuridagi holi ne kechar e`kan?!..».**

Allohnning Kitobi va rasululloh sollalohu alayhi va sallamning hadislarini o`qigan odam namozga buyurish, uni tark qilishdan ogohlantirish va namozning katta (ijobiy) natijalari naqadar ko`p e`slatilganini biladi.

Hoy namozlarini tark qilgan odam, siz u oyat va hadislarga boqing. Ularda namozlariga e`tiborsizlik qilgan kishilar uchun qattiq jazolar bayon qilingan. Siz yosholigingiz yoki umringiz bilan mag`rurlanmang. Har bir jon umri naqadar uzoq bo`lmisin, bir kuni o`lim sharobini ichadi... Siz g`aflatdan uyg`oning! Chunki, Alloh ta`olo sizni behuda yaratmadı, balki, o`zigagina ibodat qilishingiz uchun yaratdi. Siz, biz va barcha insoniyat o`z holimizga tashlab qo`yilmaganmiz... Balki, barchamizning qaytajak yerimiz bor. Alloh ta`olo bizlarni jamlaydi va hukm qiladi: o`rtamizni haqiqat bilan ajratadi. Ertaga omonlik Alloh ta`olodan qo`rqqan, taqvo qilgan va ta`qiqlaridan tiyilgan, ko`p narsa e`vaziga oz narsani, boqiylik e`vaziga foniyligini, saodat e`vaziga bahtiqrarolikni sotgan kishilar uchundir.



Ertaga Alloh ta`oloning huzuridagi holatingiz haqida o`ylab ko`ring. Allohnинг nomiga ond ichib aytamanki, u holatning shiddati va qo`rquinchi bilimdon va taqvoli kishilarga ma`lumdir... Chunki, Alloh ta`olo: «**U kunda jahannamni olib kelinadi. U kunda inson e`sraydi. biroq, bu e'slash unga foyda bermaydi**»- dedi.

«Haqiqatni bilib, unga iymon keltirgandan so`ng hech qanday foyda bermaydi», yoki «Bu haqiqatni shariatlab qo`ygan zot menga hech narsa qila olmaydi», yoki «Oxirat va oxiratdagi narsalar o`z orzularim va hohishlarimdan voz kechishim oldida hech narsa e`mas»- deb u tomon biron qadam tashlamaslik qattiq gunohdir.

Agar siz Allohga va oxiratga iymon keltirgan bo`lsangiz, yuqoridagi so`zlarga jiddiy boqishingiz va fikrlaringizga e`tibor berishingiz kerak. Agar aldanmaganingiz va sizning oldingizga qo`yilgan narsa sizga nasihat bo`lgan sof haqiqat e`kaniga ishongan bo`lsangiz, Allohnинг amrlarini tatbiq qiqlish va Alloh uchun namoz va sajda qilish uchun shoshilishingiz kerak hamda Shayton kabi osiy bo`lmasligingiz kerak. Agar bularga ijobat qilmasangiz, Alloh nomiga ond ichib aytamanki, oqibatingiz yomon bo`ladi. Undan Allohnинг izni bo`lmagan qutulish yo`qdir.

Nafs-havosiga osiy bo`lishga qodir bo`lmagan, robbisining oyatlari va namozni ta`kidlagan farmonlarini e`shitgan holda Allohga osiy bo`lib, xuddi e`shitmagandek namozni tark qilgan odamning holiga voylar bo`lsin! Alloh ta`olo dedi: «**Allohnинг tilovat qilingan oyatlarini e`shitib, e`shitmagandek kibr bilan isror e`tgan barcha gunohkor va iftirochilarining hollariga voylar bo`lsin!** Bas, ularga alamli azobdan xabar bering». [Josiya:7-8]

Haqiqatni bilib, uning nurlarini ko`rgan va bila turib Allohga osiy bo`lgan



hamda Allohning farmonlaridan bila turib g`aflatda qolgan zolimga Allohning ushbu oyatlari mos keladi: «**Hohishlarini iloh qiqlib olgan va bilganidan so`ng Allah adashtirgan kishini ko`rdingizmi?!**». [Josiya:23]

Mavzumizning so`ngida namozni tark qilgan odamga shunday deymiz: «Hoy Allohning bandasi, zalolat yo`lidan Allohning yo`liga qayting! Modomiki hayotingiz bor e`kan, Allahga tavba qiling! Bilmaysizki, bu kunduz kechaga, bu kecha kunduzga etib bora olasizmi yoki yo`qmi?.. Allah ta`olo dedi: «**Robbisining oyatlari e`slatilgan, keyin e`sar undan yuz o`girgan kishidan ko`ra zolimroq odam bormi? Darhaqiqat, bizlar jinoyatchilardan intiqom olamiz**». [Sajda:22].

Jamoat namozi va uning ahamiyati

Rasululloh sollalohu alayhi va sallam masjidlarda jamoat bilan namoz o`qish uchun hozir bo`lmaslikka qattiq dashnomlar berdilar: «**Ozonni e`shitib, ijobat qilmagan kishining namozi yo`qdir. Uzri bo`lganlar bundan mustasnodir**» (Ibn Mojja rivoyati);

«**Munofiqlarga og`ir bo`lgan namoz hufton va bomdoddir. Odamlar u ikkisida bo`lgan narsa (yaxshilik) larni bilsalar e`di, e`maklab bo`lsada kelar e`dilar**» (Muttafaqun alayh).

Abdulloh ibn Mas`ud raziyallohu anhu dedi: «**Agar sizlar namozdan kechikkan odam kabi uyingizda namoz o`qisangizlar, payg`ambaringizning sunnatini tark qilgan bo`lasizlar.** Payg`ambaringizning sunnatini tark qilsangizlar, adashasizlar..» (Imom Muslim rivoyati).



Rasululloh sollallohu alayhi va sallam dedilar: «**E`rkaklar yo namozni tark qilishdan tiyiladilar, yoki ularning uylarini yoqib tashlayman!**» (Ibn Mojja rivoyati).

Jobir raziyallohu anhu dedi: «**Ibn Umm Maktum rasululloh sollallohu alayhi va sallamning huzurlariga kelib: «Yo rasululloh, mening uyim uzoq, ko`zim ko`rmaydi, lekin, ozonni e`shtitaman (nima qilay: masjidga kelaymi yoki yo`qmi?)»**- dedi. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam: «**Agar ozonni e`shtitsang e`maklab yoki yugurib bo`lsada, ijobat qil!**»- dedilar» (Imom Ahmad va Abu Ya`lo rivoyatlari).

Odamlarning ko`pi ramazon oyida masjidlarga to`p-to`p bo`lib kirib keladi. Biroq, ramazondan so`ng to`p-to`p bo`lib chiqib ketadi. Balki, ramazon oyi o`tganidan so`ng ularning ko`plarining namozlari ham «ketadi». Go`yo ular ramazon oyidagina ibodat qiladigan, boshqa paytlarda e`sa masjidlarga olib boradigan yo`lni yo`qotib qo`ygan kishilardek ko`rinadilar. Bunday holatdan Allah saqlasin! Hatto ularning ba`zilari namozlarni butunlay o`qimay qo`yadilar, yoki masihiy (xristian)lar yakshanba, yahudiylar shanba kunlari ibodatxonaga kelganlaridek, juma kunigina masjidlarga keladilar!!

Hoy Allohnинг bandasi, e`rtaga og`ir hisobga qolishdan avval, bugun o`zingni tekshirib ko`r!.. Ishlaringga boq, kamchiliklari bo`lsa bugun afsus qil, chunki, e`rtaga afsus foyda bermaydi. Barcha narsadan avval shuni unutmaki, Allah sening qilgan ibodatingga muhtoj e`mas! Ibodatlar, Imom muslim «Sahih» nomli kitobda rivoyat qilganidek, biz uchundir va bizga ularning e`vaziga mukofotlar beriladi. Agar olgan mukofoti yaxshilik bo`lsa, banda Allahga hamd aytsin. Agar yomonlik bo`lsa, o`zidan boshqasini

malomat qilmasin.

Risolamizning so`nggida Alloh ta`oloning ushbu so`zlarini e`slatmoqchimiz: «**Allohga qaytajagingiz, keyin e`sa har bir jon zulmlanmay qilgan narsalarining badalini oladigan kundan qo`rqinglar!**». [Baqara:281].

Diqqat: Agar namoz o`qiyotgan bo`lsangiz ushbu risolani namoz o`qimayotgan kishilarga etkazing... Zero, «**Yaxshilikka dalolat qilgan odam, uni qilgan kishi kabidir**»...